

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI MULTIMEDIYA ORQALI O'RGATISH

Baxronova Mexriniso Sheroli qizi

*Kimyo International University Samarkand Branc Primary education 2-
bosqich talabasi*

KIRISH:

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitish DTSda ko'rsatilgan «A» bosqich, ya'ni boshlang'ich sinflarni o'z ichiga oladi. Demak, xorijiy til o'qituvchisi 1-2-3-sinflarda ta'lim jarayonida qanchalik ustalik bilan pedagogik texnologiyalardan o'z o'rnida, maqsadli foydalansa, dars samaradorligi yuqori bo'ladi. Davlat ta'lim standartida har bir sinf uchun, masalan, 1-sinf uchun 200 ta, 2-sinf uchun 250 ta so'z va iboralarni o'rgatish maqsadi qo'yiladi, demak, xorijiy til o'qituvchisi pedagogik texnologiyalar asosida yuqorida ta'kidlangan maqsadlarni amalga oshirishi ko'zda tutiladi. Ikkinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga faqatgina xorijiy tilni o'rgatishgina emas, balki o'z do'stlari bilan muloqotni tashkil qilish ham muhim ahamiyat kasb etishi lozim. Uchinchidan, har bir o'qituvchi pedagogik texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishda interfaol usullardan o'z o'rnida foydalanishi zarur. To'rtinchidan, o'quvchilarning fikrlash faoliyatini shakllantirish uchun o'qituvchi o'quvchilarning fiziologik rivojlanishini hisobga olib, turli didaktik va rolli o'yinlar tashkil etishi lozim. Beshinchidan, o'qituvchi interfaol usullardan – o'qituvchi va o'quvchi hamda o'quvchilararo birgalikdagi harakatdan foydalanishi kerak. Oltinchidan, o'quvchilar o'tilgan mavzuni esdan chiqarmasliklarining oldini olish maqsadida takrorlash passiv amalga oshirilmasligi kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida 2023-2024- o'quv yilidan boshlab 1-sinflardan ingliz tilini o'yin tarzidagi mashg'ulotlari va og'zaki nutq darslari shaklda uzluksiz o'rgatish yo'lga qo'yildi. 2-sinfdan esa grammatikani o'zlashtirishga qaratilgan boshqa ta'limiy o'yinlarni ham tashkil etish mumkin. 2-sinflarda xorijiy tilni o'rgatishning maqsadi yozish va o'qishdan iboratdir. Darslarni kuzatish davomida pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi turli interfaol usullar orqali bo'lib, ular juda yuqori natija bermoqda. Tajribali xorijiy til o'qituvchilariga "Play" metodidan foydalanish tavsiya qilindi. "Play" metodidan ingliz tili darsida quyidagicha foydalaniladi: o'qituvchi dastlab o'quvchilarni ikki yoki uch guruhga bo'lad. Ularga tanish bo'lgan bir so'zni aytadi va ma'lum bir chegaralangan vaqt beradi. O'quvchilar shu so'zga a'loqador so'zlarni daftarga yozadilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ingliz tili darslarida foydalanilgan raqamli ta'lim resurslari tasnifi. Chet tillari bo'yicha raqamli ta'lim resurslarini mazmuni va funkcionalligiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- 1) Ma'lumot va ma'lumotnomalar (entsiklopediyalar, ma'lumotnomalar, lug'atlar, jurnallar, gazetalar, almanaxlar);
- 2) O'qitish uchun electron kitoblar;
- 3) DVD diskali filmlar;
- 4) Electron ko'rgazmali qurollar kutubxonalari va ma'lumotlar bazalari;

TAHLIL VA NATIJALAR

Albatta har qanday chet tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalar komputer, CD,DVD qo'llash ta'lim jarayonini yanada olg'a siljib, o'sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarini tezroq o'rganish imkonini beradi. Ingliz tili darslari davomida ba'zi o'qituvchilarning texnologiyalarni qo'llashni bilmaganliklari va foydalanmasliklari, o'quvchilarning bir muncha zerikishiga olib keladi. Aynan shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchisini ishtiyogini so'ndirmaslik uchun dars davomida texnologiyalardan va kamida komputerdan foydalanish o'quvchining qiziqishini ortib borishini yanada ta'minlaydi. Zero, o'quvchining yoshiga, qiziqishiga, qobiliyatiga, darslarni o'zlashtirishiga qarab tayyorlangan o'quv materiallari albatta samara beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki raqamli texnologiyalar- virtual haqiqat. Insonning virtual haqiqatida bo'lishiga imkon beruvchi texnik qurilmalarning paydo bo'lishi ushbu texnologiyalarni ko'ngilochar sohada talabga aylantiradi. Til o'rganishda axborot texnologiyalaridan foydalanish bu maqsadga erishishni ancha osonlashtiradi.Ular boshlang'ich sinf o'quvchilariga yozish, o'qish, gapirish so'z boyligini kengaytirish ko'nikmalarini egallashga yordam beradi. Bundan tashqari, axborot texnologiyalari o'qitish vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi, bu zamonaviy jamiyatning yuqori ritmida juda muhim omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali ingliz tilini o'rgangan o'quvchining mustaqil izlanishi, til o'rganishi va tahlil qilishi bevosita va bilvosita uning bilim olish samaradorligini sezirarli ravishda oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raxima Mavlanova, Nargiz Raxmankulova "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va intergatsiya"
2. Z.A Umarova - 2021 "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi"
3. D.Kulchayeva "Boshlang'ich sinflarda „tarbiya“ fanini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari" – ilmiy maqola

4. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993

FOYDALANILGAN SAYTLAR:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-ta-lim-pedagogikasi-mazmuni>
2. <https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2021/04/Boshlangoch-talim-pedagogikasi-inavatsiya-va-integratsiya.Mavliyanova.pdf>
3. <https://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/1730>

